<i>Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi</i>	



Interfaol ta'lim metodlari asosida o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi: tajriba-sinov natijalari tahlili	628
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi	
Raqamli muhitda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining qo'shimcha ta'limini tashkil etish: tadqiqotlar sharhi	633
Amanova Dilorom Faxritdin qizi	
Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari	637
Fayzullayev Shohrux	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm	641
Fozilova Maxina Adashevna	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi	645
G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish	651
Isoqov Shohruh Turabek o'g'li	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
Jumanova Sabrina Vaydullo kizi	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
Mamatxanova Nargiza Toxirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
N. Sh. Abdullayeva, F. R. Valiyeva, S. S. Raximova	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
O. A. Shodiyeva	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
Y. R. Azzamov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
Yakubova Zilola Zikirovna	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
Teshayeva Dilnoza Chori qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
Yuldasheva Dilshoda To'liqinovna	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
Анварова Хуснора, Исохонова Азиза	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
Бекбосынова З. К.	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
Исмаилова Мадинабону	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
Хамидова Нигора Тулкуновна	



AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA MAS'ULIYATNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Teshayeva Dilnoza Chori qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktorant

ORCID: 0009-0000-5446-5653

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarda mas'uliyat sifatini shakllantirish va rivojlantirishda aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Mas'uliyat tushunchasining falsafiy-pedagogik mohiyati, uni aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy asoslari hamda mazkur jarayonning samarali mexanizmlari yoritilgan.

O'zbek va xalqaro pedagogika fanining ilmiy merosiga tayangan holda mas'uliyatni qadriyatga aylantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari, uni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ularning amaliy tatbiqi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida aksiologik yondashuvni joriy etishning istiqbollari, mavjud imkoniyatlari va innovatsion yo'nalishlari muhokama etilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida taklif etilgan mexanizmlarning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: aksiologik yondashuv, mas'uliyat, qadriyat, talaba shaxsi, oliy ta'lim, pedagogik mexanizm, qadriyat tizimi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'z-o'zini boshqarish, pedagogik shart-sharoit, refleksiya, mas'uliyatli xulq-atvor.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the pedagogical potential of the axiological approach in shaping and developing students' responsibility in higher education institutions. The philosophical and pedagogical essence of responsibility is clarified, along with the theoretical foundations for its development based on the axiological approach and the effective mechanisms of this process.

Relying on the scientific heritage of Uzbek and international pedagogy, the study examines the psychological and pedagogical conditions for transforming responsibility into a value, as well as modern pedagogical technologies aimed at its development and their practical implementation. Furthermore, the prospects, existing opportunities, and innovative directions for introducing the axiological approach into the higher education system of Uzbekistan are discussed. The effectiveness of the proposed mechanisms is substantiated through the results of experimental research.

Key words: axiological approach, responsibility, value, student personality, higher education, pedagogical mechanism, value system, student-centered learning, self-regulation, pedagogical conditions, reflection, responsible behavior.

Аннотация: В данной статье научно обоснованы педагогические возможности аксиологического подхода в формировании и развитии качества ответственности у студентов в высших учебных заведениях. Раскрыта философско-педагогическая сущность понятия ответственности, определены теоретические основы её развития на основе аксиологического подхода, а также освещены эффективные механизмы данного процесса.

На основе научного наследия узбекской и мировой педагогики проанализированы психолого-педагогические условия превращения ответственности в ценность, современные педагогические технологии, направленные на её развитие, и их практическое применение. Кроме того, рассмотрены перспективы, существующие возможности и инновационные направления внедрения аксиологического подхода в систему высшего образования Узбекистана. Эффективность предложенных механизмов подтверждена результатами опытно-экспериментальной работы.

Ключевые слова: аксиологический подход, ответственность, ценность, личность студента, высшее образование, педагогический механизм, система ценностей, личностно-ориентированное обучение, саморегуляция, педагогические условия, рефлексия, ответственное поведение.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda insonning shaxsiy va kasbiy kamolotida mas'uliyat sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yuksak raqobat muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda yangi texnologiyalar rivojlanayotgan davrda mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga,



an'anaviy pedagogik amaliyotda mas'uliyat ko'pincha tashqi talablar, intizomiy me'yorlar va nazorat vositalari orqali shakllantirilgan bo'lsa-da, zamonaviy yondashuvlar ichki motivatsiyaga asoslangan barqaror mas'uliyat sifatini rivojlantirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Aksiologik yondashuv – qadriyatlar haqidagi fan (aksiologiya)ga asoslangan pedagogik paradigma – mazkur muammoning samarali yechimini taklif etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, mas'uliyat tashqi majburiyat sifatida emas, balki shaxsning ichki qadriyati sifatida qaraladi. Mas'uliyat qadriyat darajasiga ko'tarilgan taqdirdagina talabani o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi va kasbiy etikaga sodiqligi izchil shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qarorlari va strategik hujjatlarida ham shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish masalasi ustuvor yo'nalish sifatida alohida ta'kidlangan [17; 18].

O'zbek pedagogika fanida qadriyatlar tarbiyasi masalasi bir qator olimlar tomonidan keng qamrovda tadqiq etilgan. Jumladan, Muslimov N.A. kasbiy kompetentlik va qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, kasbiy mas'uliyatni shakllantirishda qadriyat tizimining muhimligini ilmiy jihatdan isbotlagan [10].

Begimqulov U.Sh. esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirish hamda raqamli muhitda shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirish masalalarini chuqur tahlil qilgan [9].

Xalqaro pedagogikada Rokeach M.ning qadriyatlar tizimi nazariyasi, Bandura A.ning ijtimoiy o'rganish va o'z-o'ziga ta'sirchanlik konsepsiyasi hamda Kohlberg L.ning axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi aksiologik yondashuvning muhim nazariy asoslari sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning amaliy tatbiqini tahlil qilish hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitida ushbu yo'nalishning istiqbolli rivojlanish tendensiyalarini belgilashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda mas'uliyatni rivojlantirishda aksiologik yondashuvning afzalligi bir qator mustahkam nazariy asoslar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Birinchi asos – L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi bo'lib, unda shaxsning rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni orqali amalga oshishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [21].

Ikkinchi asos – A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bo'lib, unda o'z-o'zini anglash va mas'uliyat hissi inson ehtiyojlarining yuqori bosqichi sifatida talqin etiladi.

Uchinchi asos – L. Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi bo'lib, unga ko'ra, mas'uliyatning eng yuqori darajalari shaxsning qadriyat tizimiga tayanadigan axloqiy o'z-o'zini boshqarish bilan chambarchas bog'liqdir [8].

O'zbek pedagogika maktabida ham mas'uliyat tarbiyasi masalasi bir qator olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, Xoliqov A. o'z ilmiy ishlarida tarbiya tizimida mas'uliyat va burch tushunchalarining o'zaro munosabatini tahlil qilib, ularning milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan.

Nishonaliev U.N. muhandislik pedagogikasi doirasida mutaxassislarning kasbiy mas'uliyati muammosini o'rganib, uni professional kompetentlik bilan uyg'un holda rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslagan [12].

Yo'ldoshev J.G'. esa ta'lim falsafasi yo'nalishida qadriyatlar va ta'lim o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, shuningdek, milliy-ma'naviy qadriyatlarning ta'lim tizimidagi ahamiyatini chuqur tadqiq etgan [22].

Xalqaro pedagogikada so'nggi yillarda mas'uliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy yondashuvlar izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, Service Learning (xizmat orqali o'rganish) yondashuvi talabalarining jamoatchilik faoliyatida bevosita ishtiroki orqali mas'uliyat sifatini amaliyotda shakllantirishning samarali modeli sifatida e'tirof etiladi [6].

Shuningdek, J. Mezirow tomonidan ishlab chiqilgan Transformative Learning (transformativ ta'lim) konsepsiyasi talabalarining o'z dunyoqarashi va qadriyat tizimini tanqidiy qayta ko'rib chiqishlari orqali yanada yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mas'uliyat tushunchasi falsafa, psixologiya va pedagogika fanlarida turlicha talqin etiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, mas'uliyat shaxsning o'z xulq-atvori, qabul qilgan qarorlari va ularning oqibatlari uchun javob bera olish qobiliyati sifatida izohlanadi. Psixologik yondashuvda esa mas'uliyat o'z-o'zini boshqarish, ichki nazorat hamda shaxsiy sababchilik (locus of control) bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi [15].

Pedagogika nuqtai nazaridan mas'uliyat ta'lim va tarbiya jarayonida maqsadli shakllantiriladigan muhim shaxsiy sifat sifatida e'tirof etiladi.



Aksiologiya – qadriyatlarning mohiyati, tuzilishi va shaxs hayotidagi o'rnini o'rganuvchi falsafiy fan hisoblanadi. Pedagogik aksiologiya esa ta'lim-tarbiya jarayonida qadriyatlarning ahamiyatini, ularning shakllanish qonuniyatlarini hamda ta'lim mazmunidagi rolini tadqiq etadi. Pedagogik aksiologiyaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- *birinchidan*, ta'lim-tarbiya jarayoni qadriyatlar asosida tashkil etilishi zarur;
- *ikkinchidan*, har bir o'quvchi yoki talaba qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'lishi lozim;
- *uchinchidan*, qadriyatlar faqat bilim darajasida emas, balki shaxsiy tajriba hamda hissiy-irodaviy faoliyat orqali o'zlashtiriladi^[7] (1-jadval).

1-jadval: Talabalarda mas'uliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Mezon	Axloqiy tarbiya	Mas'uliyat tarbiyasi	Aksiologik yondashuv	Integrativ model
Asosiy e'tibor	Xulq-atvor	Vazifani bajarish	Qadriyat tizimi	Barcha komponentlar
Pedagogik asos	Axloq falsafasi	Majburiyat tamoyili	Qadriyatshunoslik	Tizimli-aksiologik yondashuv
Motivatsiya turi	Tashqi	Tashqi va ichki	Ichki	Ichki
Shaxs markazligi	O'rtacha	O'rtacha	Yuqori	Yuqori
Qo'llash sohasi	Umumta'lim	Oliy ta'lim	Oliy ta'lim	Oliy ta'lim
Samaradorlik	O'rtacha	Yuqori	Yuqori	Juda yuqori
O'z-o'zini boshqarish	Past	O'rtacha	Yuqori	Yuqori

Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlardan samarali foydalanildi. Xususan, ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, pedagogik kuzatish, so'rovnoma va suhbat metodlari orqali talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish jarayoni tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, aksiologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligi aniqlashtirildi.

Olingan natijalar statistik va tavsifiy tahlil usullari yordamida chuqur qayta ishlanib, ularning ishonchliligi hamda amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan aniqlash mazkur tadqiqotning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu mexanizmlarni uch asosiy guruhga ajratgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: qadriyat-semantik mexanizmlar, faoliyat-amaliy mexanizmlar hamda refleksiv-baholash mexanizmlari.

Qadriyat-semantik mexanizmlar doirasida eng muhim pedagogik vositalardan biri – qadriyat muloqoti (dialogue of values) hisoblanadi. Talabalar o'rtasida, talabalar va o'qituvchilar, shuningdek, talabalar va tajribali mutaxassislar o'rtasida mas'uliyat, burch va javobgarlik masalalariga bag'ishlangan ochiq suhbatlar, debatlar va munozaralarning tashkil etilishi talabalarning qadriyat tizimini boyitadi hamda mas'uliyat hissining ichki zaruriyat sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda o'zbek pedagogika amaliyotida “etika va ma'naviyat” fanlari doirasida bunday muloqotlarni samarali tashkil etish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Qadriyat-semantik mexanizmlarning yana bir muhim jihati – ta'lim mazmuniga aksiologik kontentni integratsiya qilishdir. An'anaviy o'quv dasturlarida mas'uliyat ko'pincha axloqiy tarbiya doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuv ushbu tushunchani huquq, iqtisodiyot, muhandislik etikasi, ekologiya va boshqa fanlar bilan integrativ tarzda bog'lashni taqozo etadi^[7]. Bunday yondashuv talabalarda mas'uliyatning universal qadriyat sifatidagi mohiyatini anglash hamda uni turli kasbiy faoliyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Faoliyat-amaliy mexanizmlar guruhi mas'uliyatni real pedagogik vaziyatlarda amaliy tajriba asosida shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalishda loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning) eng samarali mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Talabalar real loyihalarni amalga oshirish jarayonida jamoaviy mas'uliyatni his etish, vaqtni boshqarish, resurslarni samarali taqsimlash va natija uchun javobgarlikni amaliy tarzda o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, loyihaviy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlar talabalarning mas'uliyatli qarorlar qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi^[13].

Hamkorlikdagi o'rganish (Cooperative Learning) mexanizmi ham mas'uliyatni rivojlantirishning samarali amaliy vositalaridan biri hisoblanadi. Kichik guruhlarda tashkil etilgan ta'lim jarayonida har bir talaba o'z vazifasi va mas'uliyat doirasini aniq anglab faoliyat yuritadi. Bu esa jamoaviy va individual mas'uliyat o'rtasidagi

muvozanatni shakllantirishga imkon yaratadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv talabalarda nafaqat shaxsiy, balki jamoa oldidagi mas'uliyat hissini ham rivojlantiradi ^[4].

Xizmat orqali o'rganish (Service Learning) mexanizmi O'zbekiston oliy ta'lim tizimida istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida talabalar real ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etadilar. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun raqamli platformalar yaratish, aholining turli qatlamlari uchun ta'limiy dasturlar tashkil etish yoki ekologik tashabbuslarni amalga oshirish kabi faoliyatlar orqali talabalarda mas'uliyat hissi real ijtimoiy kontekstda shakllanadi va mustahkamlanadi ^[6].

Refleksiv-baholash mexanizmlari guruhiga refleksiya texnologiyalari, portfolio hamda o'z-o'zini baholash vositalari kiradi. Refleksiya pedagogik psixologiyada shaxsning o'z faoliyati, xatti-harakatlari va qadriyatlarini tahlil qilish jarayoni sifatida talqin etiladi. Talabalarda muntazam refleksiv yozuvlar yuritish, "Nima sodir bo'ldi?", "Nimani o'rgandim?", "Kelgusida nimani takomillashtiraman?" kabi savollarga javob berish orqali ularning o'z-o'zini anglash va mas'uliyat darajasini oshirishga erishiladi ^[5].

E-portfolio raqamli ta'lim muhitida mas'uliyatni rivojlantirish va namoyon etishning zamonaviy vositasi hisoblanadi. Talaba o'z o'quv faoliyati davomida erishgan natijalarini, bajarilgan ishlarini va rivojlanish dinamikasini tizimli ravishda aks ettirib boradi. Bu jarayon talabaning o'z rivojlanishiga nisbatan shaxsiy mas'uliyatini shakllantiradi. Moodle, Google Classroom kabi platformalar orqali amalga oshiriladigan refleksiv va baholash faoliyatlari ushbu mexanizmlarning samarali amaliy ko'rinishlaridan biridir ^[3].

Mentorlik va namunaviy shaxs (role model) mexanizmi ham aksiologik yondashuvda muhim o'rin tutadi. Talabalar o'z sohasining yetuk mutaxassislari, ilmiy rahbarlari yoki ijtimoiy faol shaxslar bilan muloqot jarayonida ularning kasbiy etikasi, qadriyatlari va mas'uliyat darajasini kuzatadilar hamda o'z faoliyatlariga tatbiq etishga intiladilar. Bu jarayon A. Banduraning kuzatish orqali o'rganish nazariyasiga mos keladi ^[2].

Pedagogik shart-sharoitlar nuqtai nazaridan uchta muhim omil alohida ajratib ko'rsatiladi:

- *birinchidan*, demokratik va ishonchli pedagogik muhitni yaratish;
- *ikkinchidan*, talabalar uchun ijodiy avtonomiyani ta'minlash;
- *uchinchidan*, aniq baholash mezonlari va shaffof talablarni belgilash.

Ushbu omillar talabalarda mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi ^[9].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida aksiologik yondashuvni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Xususan, o'quv dasturlarini qadriyatga yo'naltirilgan mazmun bilan boyitish, pedagoglarning aksiologik kompetentligini oshirish hamda baholash tizimini refleksiv-aksiologik mezonlar asosida takomillashtirish ushbu yo'nalishning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish mexanizmlariga doir quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin.

- *Birinchidan*, mas'uliyatni tashqi majburlash orqali emas, balki ichki qadriyat sifatida shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor talabi hisoblanadi. Aksiologik yondashuv ushbu maqsadga xizmat qiluvchi samarali pedagogik paradigma bo'lib, u mas'uliyatni shaxsning qadriyat tizimiga uzviy ravishda integratsiya qilish imkonini beradi.
- *Ikkinchidan*, talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish uchun uch guruh pedagogik mexanizmlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq: qadriyat-semantik mexanizmlar (qadriyat muloqoti, aksiologik kontentni integratsiya qilish), faoliyat-amaliy mexanizmlar (loyihaviy ta'lim, hamkorlikdagi o'rganish, xizmat orqali o'rganish – service learning) hamda refleksiv-baholash mexanizmlari (refleksiya texnologiyalari, e-portfolio, o'z-o'zini baholash). Mazkur mexanizmlarning uyg'un qo'llanilishi yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi.
- *Uchinchidan*, aksiologik yondashuvni samarali amalga oshirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur: demokratik va ishonchli ta'lim muhiti, talabalarga ijodiy avtonomiyaga berish hamda aniq va shaffof baholash mezonlarini belgilash. Ushbu omillar o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim muassasasining umumiy pedagogik madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.
- *To'rtinchidan*, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun aksiologik yondashuv nafaqat pedagogik innovatsiya, balki strategik ahamiyatga ega yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida belgilangan yuksak axloqli, mas'uliyatli va vatanparvar shaxslarni tarbiyalash vazifalari ushbu yondashuvni keng joriy etishni taqozo etadi.



- *Beshinchidan*, raqamli texnologiyalar – e-portfolio, LMS platformalar va onlayn refleksiya vositalari – aksiologik yondashuv samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli va aksiologik pedagogikaning uyg'unlashuvi zamonaviy oliy ta'lim tizimida mas'uliyatni rivojlantirishning innovatsion yo'nalishini belgilaydi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida aksiologik yondashuvni samarali joriy etish uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir fan mazmuniga mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan qadriyat komponentlarini integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bu jarayon talabalarda ichki motivatsiyani rivojlantiradi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ta'lim sifatini oshirish orqali mas'uliyatli va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2006. – 192 b.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2007. – 305 b.
7. Djurayev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – 87 b.
8. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970.
9. Furco A. Service-learning: A Balanced Approach to Experiential Education // Expanding Boundaries: Service and Learning. – Washington, DC: Corporation for National Service, 1996. – P. 2–6.
10. Guseynov A.A., Apresyan R.G. Etika. – Moskva: Gardarika, 1998. – 472 s.
11. Kohlberg L. The Psychology of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1984.
12. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
13. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2013.
14. Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991.
15. Nishonaliev U.N. Muhandislik pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.
16. O'rinov U.A. Texnika oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish: ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2022.
17. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1965.
18. Rotter J.B. Generalized Expectancies for Internal versus External Control of Reinforcement // Psychological Monographs. – 1966. – 80(1).
19. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973.
20. Tursunov A.A. Talabalarda mas'uliyatni tarbiyalashning pedagogik shartlari: ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2005.
21. Vigotskiy L.S. Tanlangan psixologik asarlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
22. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim falsafasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 184 b.
23. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory into Practice. – 2002. – 41(2). – P. 64–70.
24. Ziebertz H.-G., Riegel U. How Teachers in Europe Teach Religion. – Berlin: LIT Verlag, 2009.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.